

**JAMOAT XAVFSIZLIGINI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK
TAHDIDLARDAN HUQUQIY HIMOYA QILISHGA DOIR EKOLOGIK
TALABLAR**

Nurmatov Dilshodbek Tursunmurod o'g'li

Ish joyi O'zbekiston Respublikasi Qo'riqlash bosh boshqarmasi

E-mail: NurmatovDilshodjon2002@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Jamoat xavfsizligining__sanitariya-epidemiologik osoyishtalik holatida yashash muhitida tabiatning sifatini yomonlashtiruvchi hamda aholi salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi zararli va xavfli omillardan, himoya qilish, ularni oldini olish hamda ularga qo'yiladigan ekologik talablar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: [Jamoat xavfsizligi](#), sanitariya-epidemiologiya, aholi salomatligi, salbiy ta'sir etuvchi zararli va xavfli omillar, normativ-texnik hujjatlar, ekologik talablar.

**ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЕ
ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ОТ САНИТАРНО-
ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИХ УГРОЗ**

Нурматов Дилшодбек Турсунмурод ўғли

Место работы Главное управление охраны Республики Узбекистан

Э-маил: NurmatovDilshodjon2002@gmail.com

Абстрактный

В данной статье выдвигаются экологические требования по защите, предупреждению и предупреждению вредных и опасных факторов, ухудшающих качество природы и негативно влияющих на здоровье населения в условиях санитарно-эпидемиологического благополучия общественной безопасности.

Ключевые слова: Общественная безопасность, санитарно-эпидемиологическое благополучие, здоровье населения, негативно влияющие

вредные и опасные факторы, нормативно-технические документы, экологические требования.

ENVIRONMENTAL REQUIREMENTS FOR LEGAL PROTECTION OF PUBLIC SAFETY FROM SANITARY AND EPIDEMIOLOGICAL THREATS

ABSTRACT

This article presents environmental requirements for the protection, prevention, and prevention of harmful and dangerous factors that deteriorate the quality of nature in the living environment and negatively affect the health of the population in a state of sanitary and epidemiological tranquility of public safety.

Key words: Public safety, sanitary-epidemiological, public health, harmful and dangerous factors that have a negative impact, regulatory and technical documents, environmental requirements.

Jamoat xavfsizligini sanitariya-epidemiologik tahdidlardan himoya qilishni ta'minlashda sanitariya-epidemiologik osoyishtalikka doir ekologik huquqiy talablar muhim ro'l o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"¹gi qonunida aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlashga doir bir qator ekologik talablar o'rnatilgan. Shunday talablardan birinchisi normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqishga doir talablar hisoblanadi. Ushbu talabga ko'ra, normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqayotgan yuridik va jismoniy shaxslar aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etishi shart.

Normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqayotgan yuridik va jismoniy shaxslar yangi kimyoviy moddalar va biologik vositalarni, ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini hamda tarkibida shu manbalar mavjud bo'lgan priborlarni, materiallarni, texnologik jarayonlarni, uskunalarni, atir-upa va parдоз

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015, 34-son, 451-modda

mahsulotlarini hamda boshqa xalq iste'moli tovarlarini joriy etishdan oldin aholining sanitariya-epidemik xavfsizligini ta'minlashga doir normativlar bo'yicha asoslantirilgan takliflarni, ushbu normativlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish uslublarini, zararli mahsulot va chiqindilarni zararsizlantirish, utilizatsiya qilish usullarini ishlab chiqib, ularni kelishib olish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachiga taqdim etishi shart².

O'zbekiston Respublikasi "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi qonunining 19-moddasida ob'ektlarni rejalashtirish, loyihalashtirish va qurishga, korxonalarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga hamda ishga tushirishga doir talablar belgilangan bo'lib, unga binoan yuridik va jismoniy shaxslar ob'ektlarni rejalashtirish, loyihalashtirish va qurish, korxonalarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash hamda ishga tushirish paytida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etishi³ talab etiladi.

Kimyoviy moddalarni, biologik vositalarni va materiallarni tashish, saqlash, qo'llash, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish hamda ko'mib tashlash paytidagi talablar ushbu qonunning 21-moddasida o'rnatilgan. Unga binoan, yuridik va jismoniy shaxslar kimyoviy moddalarni, biologik vositalarni va materiallarni tashish, saqlash, qo'llash, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish hamda ko'mib tashlash paytida aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash maqsadida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etishi talab etiladi.

Jamoat xavfsizligini sanitariya-epidemiologik tahdidlardan himoya qilishni ta'minlashda radioaktiv moddalar va boshqa ionlashtiruvchi nurlanish manbalari bilan ishlash paytidagi talablar muhim ahamiyatga ega. Ushbu qonunning 22-moddasiga binoan yuridik va jismoniy shaxslar radioaktiv moddalarni hamda boshqa ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini qazib olish, ishlab chiqarish, hosil qilish, qayta ishlash, ulardan foydalanish, ularni saqlash, ularga xizmat ko'rsatish,

² O'sha joyda

³ O'sha joyda

ularni tashish, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish va ko'mib tashlash paytida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etishi⁴ talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi qonunining 26-moddasida xo'jalik va ichimlik suvi bilan ta'minlashga doir ekologik talablar belgilangan. Unga ko'ra, xo'jalik va ichimlik suvi bilan ta'minlash sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar yetkazib berilayotgan suvning sifati sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, shuningdek davlat standartlariga muvofiqligini ta'minlashi shart⁵.

Markazlashtirilgan tartibda xo'jalik va ichimlik suvi yetkazib beriladigan suv quvurlari hamda ularning manbalari uchun maxsus tartibli sanitariya muhofazasi zonalari belgilanib, ular mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi. Yuridik va jismoniy shaxslar xo'jalik va maishiy maqsadlar hamda markazlashtirilmagan tartibda suv bilan ta'minlash uchun foydalaniladigan suv havzalaridagi suvning sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq bo'lishini ta'minlashi talab qilinadi.

Jamoat xavfsizligini sanitariya-epidemiologik tahdidlardan himoya qilishda veterinar osoyishtalik, ushbu osoyishtalikka tahdid soladigan hayvonot dunyosini muhofaza qilish sohasida uchraydigan turli xil yuqumli kasalliklarning oldini olishga oid ekologik talablar muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda veterinar osoyishtalik va uni ta'minlashga doir talablar O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 29 dekabrda qabul qilingan "Veterinariya to'g'risida"⁶gi qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunda ko'rsatilishicha, davlat veterinariya xizmatining asosiy vazifalari bo'lib, epizootik monitoringni amalga oshirish, hayvonlar kasalliklarining paydo bo'lishi va ularning nobud bo'lishi sabablarini tahlil qilish, ushbu kasalliklar profilaktikasi hamda ularni davolash bo'yicha tavsiyalar ishlab

⁴ O'sha joyda

⁵ O'sha joyda

⁶ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 1-son, 1-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.11.2019 y., 03/19/583/4016-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son

chiqish, O‘zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklarini qo‘zg‘atuvchilar olib kirilishidan muhofaza qilish, sog‘liqni saqlash organlari va boshqa organlar bilan birgalikda hayvonlar va odam uchun xavfli bo‘lgan yuqumli kasalliklar o‘choqlarini tugatish, barcha chorvachilik ob‘ektlarining, kushxonalarning, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni qayta ishlovchi korxonalarining, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni realizatsiya qiladigan va saqlaydigan savdo shoxobchalarining, omborlarning veterinariya-sanitariya holatini nazorat qilish, yuridik va jismoniy shaxslardan hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalishining oldini olishni hamda ularning tugatilishini ta‘minlovchi chora-tadbirlar o‘tkazilishi, shuningdek epizootik vaziyatni aniqlash uchun zarur bo‘lgan axborot taqdim etilishini talab qilish, hayvonlarning va odamning sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan hayvonlarning kasalligi aniqlangan taqdirda, hayvonlarni so‘yishga yoki yo‘q qilib tashlashga, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni zararsizlantirishga (yuqumsizlantirishga), qayta ishlashga yoki utilizatsiya qilishga taalluqli, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan talablarni belgilash, davlat va idoraviy veterinariya xizmatlari veterinariya mutaxassislarining faoliyatini nazorat qilish⁷ hisoblanadi.

Shuningdek, xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub‘ektlari hayvonlarda yuqumli kasallik borligi xususida shubha mavjud bo‘lgan taqdirda bu haqda davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilish va kasallik doirasi kengayib ketmasligi yuzasidan barcha zarur chora-tadbirlarni ko‘rish, epizootiya paydo bo‘lgan taqdirda davlat veterinariya xizmatining ko‘rsatmalariga binoan veterinariya tadbirlarini o‘tkazishga majburdirlar.

O‘zbekiston Respublikasi hududida muomalada bo‘lgan veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo‘shimchalar veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari

⁷ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 1-son, 1-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.11.2019 y., 03/19/583/4016-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son

hamda normalariga muvofiq bo'lishi kerak. Veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo'shimchalarni ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, ulardan foydalanish hamda ularni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish faqat ular Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin amalga oshiriladi.

Hayvonlar yuqumli kasalliklarining o'choqlari aniqlangan hollarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullarning muayyan hududlarini nobop punktlar deb e'lon qilish va ularda cheklovchi tadbirlar (karantin) joriy etish tegishli bosh davlat veterinariya inspektorlarining taqdimnomasiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining qarorlari bilan yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektorining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi⁸.

Jamoat xavfsizligini sanitariya-epidemiologik tahdidlardan huquqiy himoya qilishda fuqarolarni o'simlik dunyosi mahsulotlarining zararli ta'siridan muhofaza qilishga qaratilgan ekologik talablar muhim ro'l o'ynaydi. Ushbu talablar O'zbekiston Respublikasining «O'simliklar karantini to'g'risida»⁹gi 2018 yil 9 iyulda qabul qilingan qonuni bilan tartibga solinadi.

Ma'lumki, o'simliklar karantini ob'ektlarini tashuvchilar bo'lib, transport vositalari, yerga ishlov berish qurollari, idishlar, qadoqlash vositalari, shuningdek o'simlik mahsulotlaridan tayyorlangan buyumlar, tuproq namunalari hisoblanadi. Ushbu tashuvchilarga qarshi fitosanitariya talablari qo'yiladi. Karantin ostidagi mahsulotga, uni olib kirishga, olib chiqishga, ishlab chiqarishga, qayta ishlashga,

⁸ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 1-son, 1-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.11.2019 y., 03/19/583/4016-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son

⁹ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.07.2018 y., 03/18/484/1483-son; 23.01.2020 y., 03/20/603/0071-son; 15.01.2021 y., 03/21/666/0032-son; 02.04.2021 y., 03/21/681/0264-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 11.01.2022 y., 03/22/743/0010

saqlashga, tashishga, realizatsiya qilishga va yo‘q qilishga doir talablarni belgilaydigan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi shart bo‘lgan hujjatlar fitosanitariya talablari hisoblanadi.

O‘simliklar karantini ob‘ektlari aniqlangan hollarda tuman (shahar) o‘simliklar karantini davlat inspektorining taqdimnomasiga ko‘ra mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan fermer va dehqon xo‘jaliklarining, o‘rmon xo‘jaliklarining yer uchastkalari, temir yo‘l stansiyalari, aeroportlar, daryo portlari, shaharchalar, posyolkalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek ularga tutash hududlar o‘simliklar karantini ostida deb e‘lon qilinadi yoki ularda zarur karantin cheklolari o‘rnatiladi. O‘simliklar karantini ostida deb e‘lon qilingan hududda o‘simliklar karantini o‘chog‘ining tarqalishiga yo‘l qo‘yilmaydi, unga tutash hududlarda o‘simliklar karantini ob‘ektlari tarqalishining oldini olishga va ularni yo‘q qilishga qaratilgan o‘simliklar karantiniga doir tadbirlar o‘tkaziladi¹⁰.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘simliklar karantini to‘g‘risida”gi qonunida karantin ostidagi mahsulotni olib kirish va olib chiqishga nisbatan alohida talablar belgilangan. Chunonchi, qonunning olib kirilayotgan, olib chiqilayotgan va tranzit tarzida olib o‘tilayotgan karantin ostidagi mahsulot o‘simliklar karantini ob‘ektlaridan xoli bo‘lishi hamda uning har bir turkumi fitosanitariya sertifikatlarining asl nusxalari bilan ta‘minlangan bo‘lishi, chegara punktlarida o‘simliklar karantini davlat inspektorlari tomonidan majburiy tekshiruvdan o‘tkazilishi lozim¹¹.

Ichimlik va xo‘jalik-maishiy maqsadida foydalaniladigan yer osti suv manbalari sanitariya-muhofaza zonasi ikkinchi mintaqasining chegarasi iqlim o‘zgarishi hududlariga va yer osti suvlarining muhofaza qilinganiga qarab, suvning mikrob bilan ifloslanishining suv olish joyiga qadar 100 sutkadan 400 sutkagacha

¹⁰ O‘sha joyda

¹¹ Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.07.2018 y., 03/18/484/1483-son; 23.01.2020 y., 03/20/603/0071-son; 15.01.2021 y., 03/21/666/0032-son; 02.04.2021 y., 03/21/681/0264-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 11.01.2022 y., 03/22/743/0010

siljish vaqti hisobga olingan holda belgilanadi. Ushbu zonaning uchinchi mintaqa chegarasi suvning kimyoviy ifloslanishi suv olish joyigacha siljish vaqti hisobga olingan holda aniqlanadi va bu vaqt suv olish joyidan foydalanishning qabul qilingan muddatidan ortiq bo'lishi, lekin 25 yildan kam bo'lmasligi talab etiladi.

Sanitariya-muhofaza zonasi uch turga - qat'iy rejimli, cheklangan rejimli zona va kuzatuv zonasiga bo'linadi. Birinchi zona mineral suvlar yuzaga chiqadigan, shifobaxsh balchiq konlari, mineral ko'llar, suvidan davolash maqsadlarida foydalaniladigan ko'rfazlar, cho'milish joylari, shuningdek, dengizning sohil bo'yidagi mintaqasi va cho'milish joylariga tutashib ketuvchi, kengligi kamida 100 metr bo'lgan hududni qamrab oladi. Ikkinchi zona yer usti suvlari mineral suvlar yuzaga chiqadigan joy, shifobaxsh balchiq konlari, mineral ko'llar va ko'rfazlar, mineral manbalar hosil bo'lishida ishtirok etadigan mineral va chuchuk suv aylanib turadigan yer yuzasidan uncha chuqur bo'lmagan joylarga oqadigan hududni, mineral suvlar va shifobaxsh balchiqlar tabiiy hamda sun'iy saqlanadigan joylarni, sanatoriya-kurort va dam olish tashkilotlari joylashgan hududni, shuningdek, loyiha hujjatlariga ko'ra istirohat bog'lari, o'rmon-parklar va boshqa ko'kalamzor joylarni barpo qilish mo'ljallangan hududlarni qamrab oladi.

Uchinchi zona gidromineral resurslar to'yinadigan va shakllanadigan barcha hududlarni va ular atrofidagi o'rmon daraxtzorlarini, shuningdek, sanitariya-muhofaza zonasi uchun belgilangan qoidalarga amal qilmagan holda xo'jalik maqsadlarida foydalanish mineral suv va shifobaxsh balchiq konlarining gidrogeologik rejimiga, sanitariya va landshaft-iqlim sharoitlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hududlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Suv omborlari, daryolar, ichimlik va xo'jalik-maishiy ehtiyojlar uchun ishlatiladigan kanallarning suvni muhofaza qilish zonalarida o'simliklar zararkunandalari va kasalliklariga, begona o'tlarga qarshi ishlatiladigan zaharli kimyoviy vositalarning har qanday turini qo'llash va ko'mish, zaharli kimyoviy vositalar, pestitsidlar, gerbitsidlar va mineral o'g'itlar saqlanadigan omborlar,

markazlashgan kanalizatsiya tarmoqlari bo'lmagan yangi uy-joylar va turistik komplekslarni bunyod etish, kanalizatsiya-tozalash inshootlari va oqova suvlarning turli xil sig'imlarini barpo etish, yangi qabristonlarni joylashtirish va mavjudlariga yangi mayitlarni qo'yish, chorvachilik va parrandachilik fermalari, nobud bo'lgan hayvonlar, parrandalar va baliqlarni ko'mish joylarini qurish, kimyoviy va radioaktiv moddalar ishlab chiqarish chiqindilarini joylashtirish, transport vositalari uchun to'xtash joyi, yonilg'i-moylash materiallarini quyish shoxobchalari, tuzatiladigan, texnik ko'rikdan o'tkaziladigan ustaxonalar qurish, tozalanmagan sanoat va xo'jalik-maishiy oqova suvlarni tashlash, chorva mollarni tartibsiz o'tlatish, daraxt va butalarni kesish taqiqlab qo'yiladi.

Suv omborlari, daryolar, yer osti chuchuk suvlari hosil bo'ladigan hududlarning suvni muhofaza qilish zonalarida suvning holatiga ta'sir ko'rsatuvchi qurilish, kovlash, qirg'oqlarni mustahkamlash va portlatish ishlarini olib borish, foydali qazilmalar va suv o'tlarini olish, ularni qayta ishlash, quvurli tarmoqlar va kommunikatsiya kabellarini yotqizish, burg'ilash, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarni bajarish ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat sanitariya nazorati va yer tuzish, shuningdek, geologiya va mineral resurslar, favqulodda vaziyatlar va suv xo'jaligi organlari bilan kelishilgan holda faqat mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarori bilan amalga oshirilishi mumkin.

Suv omborlari va boshqa suv havzalarining tegishli suv sathi chizig'idan 2 kilometr masofagacha aviatsiya yordamida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan va o'rmon fondi yerlariga zararli kimyoviy vositalarni sepish mumkin emas. Sohil bo'yida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda suv xo'jaligi organlari, shuningdek, suv xo'jaligi ob'ektlaridan foydalanuvchi tashkilotlarning roziligisiz hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ruxsatisiz qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirish, organik va mineral o'g'itlarni saqlash va qo'llash, chorva mollarni boqish va ularni saqlash joylarini tashkil etish, har qanday turdagi doimiy va vaqtinchalik bino va inshootlar, shu jumladan molxona,

o'g'itxona, hojatxonava boshqalar qurish, mineral o'g'itlarni transportda tashish va sepishda qo'llanilgan idishlar, mashina va asbob-uskunalarni tozalash va yuvish, jun, kanop va teri yuvish mumkin emas.

Ichimlik va xo'jalik-maishiy maqsadida foydalaniladigan yer usti va yer osti suv manbalari sanitariya-muhofaza zonasining birinchi mintaqasi hududida, shuningdek, xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti tizimi inshootlari sanitariya-muhofaza zonasining birinchi mintaqasi hududida ichimlik va xo'jalik-maishiy suv ta'minoti tizimining asosiy inshootlaridan tashqari barcha turdagi qurilishlar, uy-joy va jamoat binolarini joylashtirish, odamlarning, shu jumladan, ichimlik va xo'jalik-maishiy suv ta'minoti tizimida ishlovchi xodimlarning yashashi, ichimlik va xo'jalik-maishiy suv ta'minoti tizimi inshootlariga xizmat ko'rsatuvchi quvurlardan tashqari boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan quvurlarni o'tkazish, oqova suvlarni yer usti suv manbalariga oqizish, cho'milish, chorva mollarini sug'orish va boqish, baliq ovlash, zaharli kimyoviy vositalar, pestitsidlar, gerbitsidlar, mineral va organik o'g'itlarni qo'llash, saqlash va ko'mish, transport vositalarini yuvish taqiqlanadi.

Ichimlik va xo'jalik-maishiy maqsadlarda foydalaniladigan yer usti va yer osti suv manbalari sanitariya-muhofaza zonasining ikkinchi mintaqasi hududida, shuningdek, xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti tizimining inshootlari sanitariya-himoya mintaqasi doirasida hududni maishiy chiqindilar, go'ng, sanoat va qurilish chiqindilari, maishiy oqovalar va boshqalar bilan ifloslantirish, zaharli kimyoviy moddalar va mineral o'g'itlar, yonilg'i-moylash materiallari, o'ra-chuqurlar, shlam saqlanadigan joylar va xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti manbalarining kimyoviy ifloslanishiga olib keluvchi boshqa inshootlarni joylashtirish, nobud bo'lgan hayvon, parranda va baliqlar ko'miladigan joylar, qabristonlar, go'ng saqlanadigan joylar, silos saqlanadigan chuqurlar, chorvachilik va parrandachilik tashkilotlarini joylashtirish, o'g'itlarni aviatsiya yordamida sepish, qum va shag'al qazib olish, sanitariya-muhofaza zonalari birinchi mintaqasining tashqi chegaralaridan 500 metr masofada chorva mollari, shuningdek, parranda va baliq boqish mumkin emasligi belgilab qo'yiladi.

Ichimlik va xo‘jalik-maishiy maqsadlarda ishlatiladigan yer usti va yer osti suv manbalari sanitariya-muhofaza zonasining uchinchi mintaqasi hududida tabiat resurslari va davlat sanitariya nazorati organlari bilan kelishgan holda amaldagi sanitariya normalari, tabiatni muhofaza qilish talablariga rioya qilgan holda xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishga ruxsat berilishi mumkin.

Sanitariya-muhofaza zonalarida tabiiy davolash vositalarining tegishli sanitariya holatini, davolanish va dam olish uchun qulay sharoitlar saqlanishini ta‘minlaydigan sanitariya-sog‘lomlashtirish hamda boshqa tadbirlar amalga oshiriladi. Birinchi zona hududida tabiiy davolash vositalaridan foydalanish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan fuqarolarning doimiy yoki vaqtincha yashashlari, bino va inshootlar qurish, kon qazish va tuproq ishlarini bajarish, manbaning tabiiy davolash xususiyatiga va hududning sanitariya holatiga zararli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan harakatlarni amalga oshirish taqiqlab qo‘yiladi.

Ikkinchi zona hududida aholining davolanishi va dam olishi bilan bog‘liq bo‘lmagan bino va inshootlar qurish, kurortni rivojlantirish va obodonlashtirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan kon ishlarini bajarish, shimuvchi quduqlar qurish, sug‘oriladigan va yer osti filtrlash maydonlari, qabristonlar, nobud bo‘lgan hayvonlar, parranda va baliqlar ko‘miladigan va chorva mollari ommaviy haydab o‘tiladigan joylarni tashkil qilish, o‘simliklar zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashish maqsadida zaharli kimyoviy vositalarni qo‘llash, yashil daraxtzorlarni kesish hamda yer uchastkalari, o‘rmonlar va suv havzalaridan davolash vositalari sifatining yomonlashuviga yoki ularning kamayishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday foydalanish mumkin emas.

Uchinchi zona hududida tabiat resurslari va davlat sanitariya nazorati xizmati organlari bilan kelishilgan holda tabiiy davolash vositalariga va hududning sanitariya holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lmagan barcha turdagi ishlarni amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini tashkil etish bo'yicha qaror tuman ahamiyatga ega bo'lgan kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari, xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti tizimlari, viloyat va Toshkent shahri ahamiyatiga ega bo'lgan daryolar, boshqa suv oqimlari, suv omborlari, kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari, xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti tizimlari, xo'jalik suv ta'minoti tizimlari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, transchegaraviy, viloyatlararo va alohida ahamiyatga ega bo'lgan suv ob'ektlari, shuningdek, mineral suv manbalari va respublika ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa kurortlar va sanatoriylar davolash vositalari bo'yicha esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Tarkibiga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'orilmaydigan yerdan tashkil topgan qirg'oq bo'yidagi va sanitariya-muhofaza mintaqalari kiradigan suvni muhofaza qilish zonalarini va sanitariya-muhofaza zonalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarining tasdiqlangan chegaralari joyning o'zida ogohlantiruvchi belgilar bilan ajratib qo'yiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015, 34-son, 451-modda
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 1-son, 1-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.11.2019 y., 03/19/583/4016-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son
3. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.07.2018 y., 03/18/484/1483-son; 23.01.2020 y., 03/20/603/0071-son; 15.01.2021 y., 03/21/666/0032-son; 02.04.2021 y., 03/21/681/0264-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 11.01.2022 y., 03/22/743/0010.

4. D.T.Nurmatov (2022). Jamoat xavfsizligida Sanitariya-epidemiologik tahdidlar oldini olish sohasida xalqaro tajriba va undan O‘zbekiston Respublikasida foydalanish muammolari. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “SCIENCE AND INNOVATION” Volume:1 Issue:6/202-206 Toshkent.
5. D.T.Nurmatov (2022). Jamoat xavfsizligini sanitariya-epidemiologik tahdidlardan huquqiy himoya qilishni takomillashtirish. EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES INNOVATION” Volume: 2 Issue:13 /196-203. Toshkent.
6. D.T.Nurmatov (2023). Jamoat xavfsizligiga sanitariya-epidemiologik tahdidlar tavsifi. TADQIQOTLAR jahon ilmiy –metodik jurnal. 5-son 1-to’plam /281-291.
7. D.T.Nurmatov (2024). Jamoat Xavfsizligiga Sanitariya-Epidemiologik Tahdidlar International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) (92-95) Volume. 7, Issue 04, April 2024.
8. D.T.Nurmatov Sanitariya – epidemiologik tahdidlarning oldini olish sohasida davlat boshqaruvi va nazoratining o‘rni va ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida Harbiy Intizomni Mustahkamlashning Nazariy Va Amaliy Muammolari Mavzusidagi Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiya Materiallari 30.01.2023/ 361-368.
9. D.T.Nurmatov Sanitariya-epidemiologik tahdidlarni oldini olish sohasida uchraydigan huquqbuzarliklar turlari va ularni oldini olish muammolari. O‘zbekiston respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti Inson qadrini ulug‘lovchi xalqparvar davlat barpo etish respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 20.04.2023/95-97.